

## Toshkent shahar statistika boshqarmasi



# 2018 yilning yanvar – avgust oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida jami 5 514,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 1 458,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 26,5% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3 %ni

tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,9 %i yoki 2 861,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 21,6 % yoki 1 193,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,4 %ni tashkil etdi.

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**5514,2 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi -  
**26,5 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar ulushi -  
**51,9 %**

Norasmiy sektor  
ulushi -  
**21,6 %**

### Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi -  
**1 458,6 mlrd.so'm**
- o'sish surati -  
**110,3 %**


### Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi -  
**2 861,9 mlrd.so'm**
- o'sish surati  
**117,9 %**

### Norasmiy sektor

- hajmi -  
**1 193,7 mlrd.so'm**
- o'sish surati -  
**100,4 %**

## Yanvar - avgust oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 61,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi

ko'rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,3 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,4 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.

### Yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 18,3 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 %

punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 46,4 % (16,0 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 35,3 %ni (16,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-avgustda faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 64,8 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 35,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,4 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish

ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi va 14,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 85,7 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi.

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod tumani

yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 75,0 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan


### Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Yashnobod tumanida kuzatildi 0,3%. Bu hududdagi qurilish

ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 99,7 %i.

## Tumanlarda qurilish ishlarining o'lish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'lish surati Shayxontoxur tumanida kuzatildi.

Katta hajmda amalga oshirilayotgan qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- "Tashkent City" majmuasining qurilishi ;

- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi,


- Yangi biznes aeroportining qurilishi;

- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;

- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;

- Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.

### Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd. so`m)



Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:  
Aloqa telefoni:

**B. Shoimqulov**  
**(0371) 230-88-18**